

## ISLOM TARAQQIYOT BANKI

*Akbarov Uchqun**Toshkent davlat yuridik universiteti**Xususiy huquq fakulteti 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Islom taraqqiyot banki asl maqsadi bu a'zo bo'lgan mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirish va asosan bank sohasini moliyaviy tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa albatta a'zo bo'lgan davlatlar iqtisodiyoti uchun katta foyda keltiradi. Islom taraqqiyot banki a'zo mamlakatlarga, davlat va xususiy sektorga qarashli yo'llar, kanallar, to'g'onlar, maktablar, kasalxonalar, uy-joy, qishloq tumanlarini rivojlantirish va boshqalar kabi qishloq xo'jaligi va infratizilma loyihalarini moliyalashtirish uchun qarzlarni beradi. Ushbu loyihalar ustuvor hisoblanadi va a'zo-mamlakatlar ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

**Tayanch so'zlar:** ITB, Bank, Taraqqiyot, Ko'mak

Ma'lum usullarni tahlil qilish orqali biz Islom taraqqiyot banki ya'ni (ITB) ni a'zo davlatlarga ta'siri qay darajada ekanligini o'rganamiz. Avvalo ITB ning tarixini aytib o'tsam. Islom taraqqiyot banki (ITB) 1975 yilda IHT mamlakatlari moliya vazirlari yig'ilishining qaroriga ko'ra tashkil etilgan. ITBning shtab-kvartirasi Saudiya Arabistonining Jidda shahrida joylashgan. ITBning Hududiy ofislari 1994 yili Rabot (Marokash)da, shu yili Kuala-Lumpur (Malayziya)da, 1997 yili Olma-Ota (Qozog'iston)da va 2008 yili Dakar (Senegal)da ochildi. Bank shuningdek 12 ta a'zo mamlakatda mahalliy vakolatxonalarga ega albatta bular ichida O'zbekiston ham bor. 1987-yilda „Islom banklari portfeli“ tashkil qilingan. Ushbu tashkilot a'zo bo'lgan davlatlararo savdo-sotiq moliyaviy qo'llab quvvatlash uchun sarmoyadan foydalanish hamda qimmatbaho qog'ozlar va lizing bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida ochilgan. Shariat normalariga asosan bunga naqd pul va qarzlarni kirmaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek ITB asosiy maqsadi a'zo mamlakatlarning, shariatga asoslangan musulmon jamoalarining, iqtisodiy rivojlantirish va ijtimoiy taraqqiyotiga ta'sir o'tkazish.

**Islom taraqqiyot bankining to'liq vazifalari:**

- aksionerlik kapitaliga vositalarni sarmoyalashtirish.
- ishlab chiqarish korxonalarini va loyihalariga qarzlarni berish
- a'zo-davlatlarga iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi maqsadida boshq shakllarda moliyaviy yordam berish.
- aniq maqsadlar uchun tuziladigan maxsus fondlarni boshqarish. Nomusulmon davlatlardagi musulmon jamoalariga yordam fondi shular jumlasidan.

- moliyaviylashtirish uslublari vositasida moliyaviy resurslar yoʻnaltirish va depozitlarini qabul qilish.
- aʼzo-davlatlarga texnik yordam koʻrsatish.
- musulmon davlatlarning rivojlanishi boʻyicha tashkilot aʼzolarini oʻqitishda xizmatlar koʻrsatish.
- bepul kreditlar berish.

Albatta koʻrib turganimizdek bu tashkilotning tarkib topshining eng eng asosiy vazifasi bu qashshoqlikni bartaraf etish va iqtisod tomondan qiynalib qolgan musulmon davlatlarga koʻmak berish bu borada nima muammo boʻlsa qoʻlidan kelgancha yordam berish. Islom taraqqiyot bankining asosiy homiysi bu arab mamlakatlari hisoblanadi. Hattoki Yevropa Ittifoqining Komissiyasi ham ITBni xatarsiz moliyaviy taraqqiyot muassasasi sifatida tasnifladi. ITB BMTning Bosh Assemblyasida kuzatuvchi maqomini oldi. ITBning muassasalari IHT Bosh kotibiyati va muassasalari, Xalqaro taraqqiyot banki, BMT taraqqiyot tashkiloti, Hududiy rivojlantirish tashkiloti, Milliy rivojlanish jamgʻarmalari va nodavlat tashkilotlari kabi bir qator tashkilotlar bilan taraqqiyot sohasida yaqin aloqa qilib kelmoqdalar. Islom taraqqiyoti banki ITB guruhidan iborat boʻlgan maxsus tashkilot va jamgʻarmalarni taʼsis etdi. Tashkil topgan vaqtdan boshlab ITB moliyalashtirgan mablagʻlar umumiy hajmi 2013 yilning oxiri holatiga 97,8 mlrd.dollarni tashkil etdi, undan 46,9 mlrd.dollari(48%) loyihaviy moliyalashtirishga, 49,8 mlrd.dollari savdoni moliyalashtirishga va 0,7 mlrd.dollari(1%) maxsus yordam uchun yoʻnaltirildi.

2022-yilning 18 avgust kuni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoniga davlat tashrifi doirasida Islom taraqqiyot banki (ITB) prezidenti Muhammad bin Sulaymon Al-Jassirni qabul qildi. Prezidentimiz ITB bilan sheriklik jadal rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan taʼkidlab, Bankning Oʻzbekistondagi keng koʻlamli islohotlar dasturini amalga oshirishdagi strategik rolini alohida qayd etdi.

Bugungi kunda ITB bilan birgalikda uy-joy kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish, qishloqlarni, sogʻliqni saqlash, taʼlim, suv xoʻjaligi, tadbirkorlik va boshqa sohalarni rivojlantirish boʻyicha umumiy qiymati 1,2 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Albatta bunaqa imkoniyatlardan foydalangan holda butun Oʻrta Osiyoni qiynab kelayotgan "Orol" muammosini ham unutmagan holda oldinga qadam tashlab ketaverishimiz kerak. Albatta ITB bilan hamkorlikda Oʻzbekistonda kam sonli lekin boʻlib turgan kambagʻalchilikni xotin-qizlarni ish bilan taʼminlashda shartnomalar tuzsak boʻladi.

Hozirgi kunda ITB ning tarkibida 57 davlat mavjud.

Islom bankinging an'anaviy bank ishi bilan asosiy farq shundaki, Islom banki shariat tamoyillariga asoslangan bo'lsa, an'anaviy bank ishi faqat inson tomonidan yaratilgan. Shunday qilib, mahsulotlarning hususiyatlari va biznes yondashuvi kabi operatsiyalarning barcha jihatlari shariat qonunlaridan kelib chiqqan bo'lib, bu an'anaviy banklarninkidan sezilarli farqga olib keladi. Islom banki foyda ko'ruchi tashkilot bo'lsa-da, Islom shiati qoidalariga murosaga kelmaydi. Islomiy bank ishi odatdagi foyizga asoslangan banklar singari narx belgilash va pul ayirboshlash va foyiz olishga asoslanmagan, balki u tovar va xizmatlar sotiladigan va shariatga muvofiq foyda olish uchun tavakkal qilib sarmoya kiritiladigan sarmoya tizimidir. Bu Qur'on amriga asoslanadi, unga ko'ra savdo ruxsat berilgan ribo ta'qiqlangan. Islom bank ishi tavnakkalchilikni taqsimlash, foyda va zararni taqsimlash va real faoliyatni amalga oshirishdan iborat axloqiy tamoyillarga asoslanadi. Islom bankchiligida aktivning qiymati boshqa faoliyat ko'rsatuvchi aktivga bog'liq bo'lgan lotinlar kabi moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyati yo'q.

Xulosa qiladigan bo'lsak Islom taraqqiyot banki ham diniy ham qonuniy ish yuritadigan tashkilotdir. Bu tashkilot shartnomaga nima yozilgan bo'lsa barchasini vijdonan amalga oshiradi. Mening bu maqolani yozishimdan maqsad dunyoda mana shunaqa adolatli tashkilotlar borligini sizlar ham bilishingizni istadim.

#### **Foydalanilgan manbalar:**

1. Wikipedia
2. O'zbekiston Respublikasi milliy ilmiy portal 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani., Universitet ko'chasi., 7-uy
3. President.uz